

ABRLI MATOLARDAN TEJAMKOR FOYDALANISHGA TA'SIR ETADIGAN OMILLAR TAHLILI



Allayeva Yulduz Baxtiyarovna

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat
instituti, "Tikuv buyumlari texnologiyasi
va raqamli injirining" kafedrası asisssenti

20y387ga@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21824322>

Annotasiya. Maqolada abrli milliy matolardan loyihalangan ayollar kiyimiga bo'lgan ehtiyojlari va moda tendensiyalarining istiqbolini tezkor aniqlash masalasi tahlil qilingan. Maqolada hozirgi kunda talabgor bo'lgan ayollar komplektining yangi dizayn loyihasi ishlab chiqilgan Shu bilan birga abrli matolardan kiyim loyihalashda oqilona foydalanishga ta'sir e'tuvchi omillar keltirilgan.

Kalit so'zlar: abrli maro, ayollar komplekti, atlas, adras, andoza, joylashma, facktura, AKT.

Аннотация. В статье анализируется вопрос оперативного определения перспектив модных тенденций и потребностей в женской одежде, спроектированной из абровых национальных тканей. В статье разработан новый дизайнерский проект женской коллекции, которая сейчас пользуется большим спросом Вместе с тем, приведены факторы, влияющие на рациональное использование абровых тканей при проектировании одежды.

Ключевые слова: абровое полотно, женский комплект, атлас, адрас, шаблон, расположение, фактура, ИКТ.

Abstract. The article analyzes the issue of promptly determining the prospects of fashion trends and the needs for women's clothing designed from abr national fabrics. The article develops a new design project for a women's collection that is currently in high demand. Additionally, factors influencing the rational use of abr fabrics in clothing design are presented.

Keywords: abrli maro, women's set, atlas, adras, pattern, placement, fascture, ICT.

Ayollar kiyimlarini loyihalashda iste'molchilar ehtiyojlari va moda tendensiyalarining istiqbolini tezkor aniqlashga alohida ahamiyat berilmoqda. Dunyoda yengil sanoat etakchi tarmoqlardan biri hisoblanib, ishlab chiqarish mahsulotining 5,7 % ni tashkil etadi. Oxirgi yillarda matoga va kiyimga bo'lgan extiyoj dunyo bo'yicha 90,5 % ga, AQSH da 99,3 % ga va Yaponiyada ikki barobarga oshdi. Xitoy to'qimachilik va yengil sanoat mahsulotlarini eksport qilish bo'yicha jaxon bozorining 30 % ni tashkil etadi. Ishlab chiqaruvchi korxonalar uchun innovation modellar yaratish muhim vazifa hisoblanib, resurstejamkorlik tamoyillari asosida matolardan tejimli foydalanish hamda avtomatlashtirilgan dasturlar asosida kiyimlarni loyihalash masalasini ham qo'yadi. Tikuvchilik sanoatida ayollar kiyimlarini ishlab chiqarishda yangi assortiment turlarini yaratish, ularning sifatini oshirish, xom ashyo sarfini kamaytirish, ishlab chiqarishga joriy etish hisobiga uning tannarxini pasaytirishga alohida e'tibor berilmoqda.

Jahonda inson qomatiga individual yondashgan holda kiyim ishlab chiqarish, resurstejamkor texnologiya asosida raqobatbardosh modellarni yaratish, ularning ilmiy asoslarini ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Innovatsion matolarning xususiyatini e'tiborga olgan holda turli assortimentdagi modellar qatorini yaratish, sifatli mahsulot ishlab chiqish, axborot texnologiyalaridan foydalanib kiyim tayyorlash texnologiyasini takomillashtirish dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biri hisoblanadi.

Respublikamizda an'anaviy qadriyatlarni asrash, avaylash, qayta tiklash va yoshlarga targ'ib etish borasida milliy abr matolaridan moda, aholi mentaliteti va demografik xususiyatlari, so'nggi paytlarda ayollar o'rtasida zamonaviy kiyinish madaniyatining kuchayganligini e'tiborga olgan holda keng qamrovli chora tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev tomonidan to'qimachilik mahsulotlarini yanada rivojlantirishga qaratilgan bir qator Qarorlar va Farmonlar qabul qilingan. 2018-yil 28-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PQ-4038-son qarori bo'yicha respublikada an'anaviy qadriyatlarni asrash, avaylash, qayta tiklash va yoshlarga targ'ib etish borasida madaniyat, ommaviy axborot vositalarida ma'naviy-axloqiy mezonlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligiga erishish hamda xotin-qizlar o'rtasida radikallashuvni oldini olish, ularning ma'naviyati va madaniyatini yuksaltirishga oid chora-tadbirlar bajarilishi belgilangan [1].

Ushbu nuqtaiy nazardan kelib chiqib, qadim tarixga ega bo'lgan o'zbek to'qimachilik sanoati oldidagi vazifalardan biri milliy matolarimiz bo'lgan atlas, adras, beqasam, banoras, shoyilarning turlari, fakturasi, kiyimlarning bichimi, ularni loyihalash bo'yicha kompleks tahlil ishlarini olib borish va axborot texnologiyalaridan foydalanib kiyim ishlab chiqarishni amalga oshirishdir.

Abrli gazlamalar respublikamiz milliy ramzi hisoblanib, xalqimizning qadriyatlari, madaniy merosi va san'ati bilan chambarchas bog'liqdir. Har bir naqsh, rang, shakl, mahalliy madaniyat va tarixni aks ettiradi. Ma'lumki, abrli gazlamalar asosan paxta, ipak kabi tabiiy tolalardan abrband usulida bo'yali, ishlab chiqariladi. Shu boisdan ham dunyo bozorlarida o'z o'rniga ega [2].

Abrli gazlamalarning naqsh turlari ikki yuzga yaqin ekanligi manbalarda keltirilib o'tilgan. Abr matolarining naqshlarini bir necha guruxga bo'lsa bo'ladi: eng ko'p uchraydigani bu kundalik buyumlar, o'simliklar va jonzot turlaridan tarkib topgan. Undan tashqari geometrik shakillar, ya'ni aylana, romb, to'g'ri va egri chiziqlardan tashkil topgan [3].

To'qilish turiga qarab abr matolari ikki guruxga bo'linadi: adras va atlas (1-rasm). Adrasda tanda ipi ipakdan, arqoq ipi paxta ipidan tayyorlanadi. Atlas guruxidagi matolar faqat ipak tolalardan to'qiladi.



1-rasm. Atlas va adras mato turlari

Ma'lumki, abr matolarini ishlab chiqarish murakkab texnologik jarayondan iborat bo'lib, kiyim tayyorlashda matoning eni va bo'yidan chiqitga ko'p chiqishi kuzatiladi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, abr matolarining eniga va gulining turiga qarab andazalararo chiqindilar sarfi 30,0 % - 38,0 % ni tashkil etadi. Milliy matolardan (atlas, adras, beqasam) kiyim modellarini tanlashda gazlamalar eni 45 sm dan 65 sm gacha bo'lganligi sababli gazlama sarfini me'yorlashtirish xamda nakshning kiyimda joylanishini hisobga olish katta ahamiyatga ega [4].

Yuqoridagilarni e'tiborga olib, abr matolaridan kiyim ishlab chiqarishda gazlama sarfini me'yorlashtirish uchun matoning turiga, uning guliga va eniga qarab resurstejamkor texnologiyalar asosida kiyim tayyorlash dolzarb masala hisoblanadi.

Tikuv buyumlari tannarxining 70-80% ini gazlama narxi tashkil etishini e'tiborga olib, uni kamaytirishning va ishlab chiqarish rentabelligini ko'tarishning eng samarali yo'li buyum sifatini pasaytirmasdan gazlamani iqtisod qilish tadbirlarni tashkillashtirishdan iborat [4].

O'tkazilgan tahlillar natijasi shuni ko'rsatadiki [5], quyidagilar gazlama sarfini va tikuv buyumlari tannarxini pasaytirishning asosiy omillari xisoblanadi va milliy matodan kiyim ishlab chiqishda tavsiya etiladi:

- gazlama nakshining turi va uni buyumda joylashishi;
- modelga bog'liq holda rasional endagi gazlamani qo'llanilishi;
- gazlama sarfini me'yorlashtirish usullarini rivojlantirish;
- gazlamani bichishga tayyorlash va bichishni tashkil etishni rivojlantirish.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, gazlama eni, uning naqshi xususiyatlarini va kiyimda joylanishini hisobga olgan holda tikuvchilik sanoatida milliy matolardan rasional foydalanish mahsulot ishlab chiqarishda gazlama sarfini pasaytirishning asosiy omillaridan biridir, deb aytish mumkin.

Joylashmani bajarishda asosiy vazifa bo'lib, andazalar texnik shartlariga rioya qilgan holda andazalararo chiqindilarni minimal o'lchamini ta'minlaydigan andazalarni yanada rasional joylashtirish yo'llarini topish hisoblanadi. Andazalar eksperimental joylashmasini bajarishda mehnat unumdorligini oshirish va andazalararo chiqindilarni kamaytirish maqsadida har bir fason to'ralik guruhi va barcha razmer-rostlar bo'yicha andazalar komplektiga ega bo'lish kerak.

Eksperimental joylashmaga ta'sir qiluvchi asosiy omillar bu: joylashmada andazalar komplektining miqdori; gazlamani to'shash usuli; gazlama eni, naqsh turi va uning kiyimda joylanishi; joylashmada kiyim razmer-rostlarini birlashmalarini turli usullarini qo'llash; kiyimda mayda detallar soni hisoblanadi.

Mahsulot tannarxini pasaytiruvchi muhim omil hisoblangan - gazlamadan rasional foydalanish ishlab chiqarish rentabelligiga ahamiyatga ega darajada ta'sir qiladigan dolzarb vazifadir.

Gazlama sarfiga ta'sir etadigan omillar uchta asosiy – texnologik, tashkiliy va texnik guruhlarga bo'linadi (2-rasm) [5].


Gazlama sarfini me'yorlashtirishda texnologik omillarga quyidagilar kiradi: andazalar joylashmasini bajarish usuli; andazalarni joylashmaga joylashtirish usuli; gazlama yuzasining turi.

Tashkiliy omillarga buyum modellari uchun tanlangan endagi gazlama sarfi; joylashmada andazalar komplektining miqdori; andazalar joylashmasida razmer-rostlarning birlashmalari; andazalar joylashmasida turli modellar birlashmasi, gazlama sarfini hisoblash usullari; joylashmada andazalararo chiqindilar foizini aniqlash usullari kiradi.

Texnik omillarga andazalar tayyorlash uchun vositalar; andazalar yuzasini aniqlaydigan vositalar, andazalar joylashmasini bajarish vositalari; andazalar joylashmasini ko'paytirish vositalari; andazalar joylashmasini bajarish uchun mavterial turi kiradi.

Olib borilgan tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, gazlama naqshi xususiyatlarini va uni kiyimda joylashishini hisobga olgan holda tikuvchilik sanoatida milliy matolardan rasional foydalanish mahsulot ishlab chiqarishda gazlama sarfini pasaytirishning asosiy omillaridan biridir.

Material ustiga andazalarni joylashdagi tejamkorlik chiqitlar chiqishiga qarab belgilanadi: yaroqsiz qiyqimlarning ko'p chiqishi turli omillarga bog'liq: gazlamaning eni, naqshi, turi, joylangan detallarning shakli, o'lchami va soni, andazalar joylash sxemasi, kiyimning o'lchami va bo'yi hamda gazlamaga andazalarni joylash tartibi shunday omillar jumlasiga kiradi. Chiqindilarning ko'p-oz chiqishiga andazalarning joylanish tartibi ko'proq ta'sir etadi [6-7].



2-rasm. Gazlamani bichishga tayyorlash bosqichida gazlamadan tejamkor foydalanishga ta'sir etadigan omillar klassifikatsiyasi

Ilmiy tadqiqot ishida hozirgi kunda talabgor bo'lgan ayollar komplektining yangi dizayn loyihasi ishlab chiqildi (3-rasm). Ayollar komplekti yangi dizayn loyihasini ishlab chiqishda 150 dan ziyod turli yoshdagi va turli kasbdagi ayollar o'rtasida so'rovnomalar o'tkazildi. O'tkazilgan ssrovnomalar natijasiga ko'ra yangi modelda kombinatsiyalashgan mato turlari qo'llanildi [8].



3-rasm. Ayollar komplekti yangi dizayn loyihasi

Olib borilgan tahlillar asosida shunday xulosa qilish mumkinki, abrli gazlamalarda andazalararo chiqitlar sonini kamaytirish masalasiga e'tibor qaratish, buning uchun esa kiyim loyihalashning avtomatlashtirilgan dasturiy ta'minotlardan foydalanib andazalar joylashmasining maqbul variantini ishlab chiqish vaifasini belgilab olish maqsad qilib olindi. Ilmiy tadqiqod ishining keyingi bo'limlarida tayyor mahsulotni resurstejamkor texnologiya asosida sifatli, raqobatbardosh qilib ishlab chiqishda joylashmaga andazalarni tejamli joylashtirish uchun matoning eni, naqsh turi va o'lchami, fakturasi, kiyimlarning bichimini hisobga olib AKT dasturi asosida abr matosidan ayollar kiyimini loyihalash vazifasi amalga oshirilishi maqsad qilib qo'yildi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

- 1.Тадбиркорликни қўллаб-қувватлаш – стратегик йўлимиз. Президент Ш.Мирзиёевнинг кичик ва ўрта бизнес вакиллари билан учрашувда сўзлаган нутқи. 19.03.2025.
- 2.Y.B.Allaeva, M.K.Rasulova. Adras gazlamasining tarixiy ildizlari, ishlab chiqarish texnologiyasi va zamonaviy moda olamidagi o'gni. Yangi Uzbekiston: Ilmiy tadqiqotlar. 2025 №1.
- 3.P.S.Siddiqov, D.I.Artikovalarning "Milliy matolar va ularning turlarini kengaytirish". To'qimachilik muammolari. №3/2017. P.S.Siddiqov, R.N.Abdullayeva, S.M.Jurayeva. "Yangi tuzilishdagi abrli matolarni ishlab chiqish". To'qimachilik muammolari. №4/2010.
- 4.Арипджанова Д.У. Разработка технологии производства женской одежды из нового ассортимента шелковых тканей. Дисс... кан. тех. наук. Т., 2004. с 66.
- 5.M.Rasulova, L.Xasanova, "Abrli gazlamalardan ayollar kiyimini loyihalash uchun dastlabki ma'lumotlar tahlili". Magistratura talabalarining ilmiy maqolalar to'plami-2022.
- 6.Artikbayeva N.M. Kiyim detallari shakllarqarorligini oshirish texnologiyasini takomillashtirish: t.f.f.d. PhD: -TTYSI.Toshkent, 2024.-187 b.
- 7.Н.М. Артикбаева, И.Г. Шин, С.Ш. Ташпулатов, И.В. Черунова, Н. Бралина Оценка напряженного состояния при формообразовании объемных участков деталей одежды потоком сжатого воздуха // Иванова 2019 г. № 5 (383) 2019.-С.181-186. <https://doi:10.214151/1561-5405>
- 8.N.Artikbaeva, M.Rasulova, G.Buzrukhanova, N.Musurmonova., Ways to Improve Dimensional Stability in Women's Garment Components Made from Various Types of Fabric // conference on Advanced Technologies in Engineering AIP Conf. Proc. 3447, 030009-1-030009-7; <https://doi.org/10.1063/12.0044036>